KOMMUNAL XO‘JALIKLARNI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNING IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIYOT RIVOJIGA TA'SIRI

THE IMPACT OF IMPROVING THE ECONOMIC BASIS OF MUNICIPAL UTILITIES DEVELOPMENT AND MANAGEMENT ON THE ECONOMY

Muallif: Mardanova Mohidil Otabek qizi [1]
Affiliyatsiya: Samarqand davlat texnika universiteti tayanch doktoranti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23280105

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kommunal xo‘jaliklarni rivojlantirish va boshqarishning iqtisodiy asoslarini takomillashtirishning iqtisodiyot rivojiga ta'siri masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda kommunal xo‘jaliklarni rivojlantirish va boshqarishning iqtisodiy asoslarini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj tobora kuchaymoqda. Aholini ichimlik suvi, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish, obodonlashtirish va boshqa muhim xizmatlar bilan uzluksiz ta'minlash zamonaviy davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Kommunal xo‘jalik, innovatsion boshqaruv, investitsiyaviy jozibadorlik, ekologik barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, boshqaruv mexanizmlari, boshqaruv samaradorligi

ABSTRACT

This article examines the impact of improving the economic foundations for the development and management of public utilities on economic development. Today, the need to improve the economic foundations for the development and management of public utilities is growing. One of the main tasks of the modern state is to ensure an uninterrupted supply of drinking water, sewerage, heat, solid waste disposal, public amenities, and other essential services.

Keywords: Public utilities, innovative management, investment attractiveness, environmental sustainability, economic development, management mechanisms, effective management

Jamiyat taraqqiyoti, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va aholi sonining ortishi kommunal xo‘jaliklarni rivojlantirish va boshqarishning iqtisodiy asoslarini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojni tobora kuchaytirmoqda. Aholini ichimlik suvi, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish, obodonlashtirish va boshqa muhim xizmatlar bilan uzluksiz ta'minlash zamonaviy davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois kommunal xo‘jalik iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tarmoqning samarali faoliyati aholining turmush sifati, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi, ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish darajasiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, kommunal xo‘jaliklar dastlab G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlari natijasida shakllangan. Iqtisodiyot fanlari doktori, professorlar Q.J. Mirzayev va M.Q. Pardayevning ta'kidlashicha [Mirzayev, Pardayev, 2014: 112–118], kommunal xo‘jalikning rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, urbanizatsiya jarayonlari hamda infratuzilma tizimining takomillashuvi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois kommunal xo‘jalikning tarixiy rivojlanishini shartli ravishda uchta bosqichga ajratish maqsadga muvofiqdir.

1-jadval

Kommunal xo‘jaliklarning tarixiy rivojlanish bosqichlari

Bosqich	Davr	Asosiy xususiyatlari	Yetakchi mamlakatlar
I bosqich (Modernizatsiya davri)	1990–2005	Kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, xususiy sektorni jalb etish, xizmat sifatini oshirish.	Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH
II bosqich (Raqamlashtirish davri)	2006–2015	Smart City, GIS, elektron boshqaruv, energiya samaradorligi, avtomatlashtirilgan hisobga olish tizimlari.	Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Niderlandiya
III bosqich (Barqaror va innovatsion boshqaruv davri)	2016–2025	Sun’iy intellekt, IoT, Big Data, yashil iqtisodiyot, davlat-xususiy sheriklik, raqamli platformalar.	Daniya, Finlandiya, Singapur, Germaniya

Birinchi bosqich – modernizatsiya davri (1990–2005-yillar) kommunal infratuzilmani yangilash, eskirgan muhandislik tarmoqlarini rekonstruksiya qilish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish bilan tavsiflanadi [Mirzayev, Pardayev, 2014: 112-118]. Bu davrda rivojlangan davlatlarda kommunal xo‘jaliklarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshiriladi [Muhammadov, 2021: 37–42].

Ikkinchi bosqich – raqamlashtirish davri (2006–2015-yillar) kommunal xo‘jalikni boshqarishda Smart City konsepsiyasi, GIS texnologiyalari, elektron boshqaruv hamda avtomatlashtirilgan hisobga olish tizimlarining keng joriy etilishi bilan tavsiflanadi [Buzyrev, 2019: 85–96]. Mazkur texnologiyalar resurslardan samarali foydalanish, boshqaruvning shaffofligini ta'minlash va kommunal xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi [UN-Habitat, 2022].

Uchinchi bosqich – barqaror va innovatsion boshqaruv davri (2016–2025-yillar) sun'iy intellekt (AI), Buyumlar interneti (IoT), Big Data, raqamli platformalar hamda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimlarining joriy etilishi bilan tavsiflanadi [Asaul, 2019: 215–228]. Ushbu bosqichda kommunal infratuzilmani real vaqt rejimida boshqarish, resurslar sarfini optimallashtirish va ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatini kengaytiradi [OECD, 2020].

Respublikamizda kommunal xo‘jalikning rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar hamda ilmiy-texnik taraqqiyot bilan uzviy bog‘liqdir. Turli tarixiy davrlarda ushbu sohaning boshqaruv mexanizmlari, xizmat ko‘rsatish shakllari va infratuzilmasi takomillashib borgan.

Biroq rivojlangan bozor sharoitida ham kommunal xo‘jaliklarni boshqarishning ma'muriy usullari o‘z ahamiyatini saqlab qoladi va zarur bo‘lganda ulardan foydalaniladi. Xususan, bozor iqtisodiyoti rivojlangan hamma mamlakatlarda ma'muriy usullar vositasida monopoliyaga qarshi siyosat amalga oshiriladi. Davlat bozorning monopollashtirilishiga to‘sqinlik qiladigan ma'muriy cheklovlar tizimini belgilaydi, monopol kompaniyalar faoliyatini direktiv yo‘sinda boshqaradi.

Boshqarishning tashkiliy-ma’muriy usullari ikki shaklda:

– tashkiliy ta'sir ko‘rsatish usullari;
– farmoyish berish usullari shakllarida namoyon bo‘ladi.

Tashkiliy usullarning bu ikkala shakli birgalikda qo‘llaniladi, bir-birini to‘ldiradi va rivojlantiradi. Har ikkala shaklning uyg‘unlashuvi ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olgan holda optimal bo‘lishi kerak. Tashkiliy ta'sir ko‘rsatish boshqariladigan korxonalarni loyihalash bosqichidan boshlanadi. So‘ngra reglamentlash, normalash ishlari bajariladi. Yaxshi tashkil etilgan loyihalash, reglamentlash va normalash tadbirlari boshqarishga juda katta yordam beradi. Eng avvalo, ular boshqarish jarayonida:

– muntazamlik va obyektivlikni ta'minlaydi;
– asossiz va tasodifiy harakatlarga chek qo‘yadi;
– reglamentlangan tartib o‘rnatadi.

Bundan tashqari, normativlar boshqarishning mavjud shakllarini, bo‘limlar strukturasini va ayrim kishilar, shaxslar faoliyatini amaliy jihatdan tushunib olishga, nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilishda yordam beradi. Kommunal xo‘jaliklarni rivojlantirishda boshqaruv samaradorligi bir necha muhim omillarga bog‘liq.

Birinchisi — bu resurslardan foydalanish samaradorligi. Suv, energiya va boshqa resurslardan tejamkor foydalanish xizmatlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, boshqaruv tizimining shaffofligi va samaradorligi muhim hisoblanadi. Zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish xizmat ko‘rsatish jarayonini optimallashtiradi.

Kommunal xo‘jaliklarni rivojlantirishda quyidagi tamoyillarga asoslanish muhim:

–tizimlilik va kompleks yondashuv;
–iqtisodiy samaradorlik;
–investorlar manfaatlarini himoya qilish;
–iste’molchi manfaatlarini himoya qilish;
–ekologik barqarorlikni ta'minlash.

Mazkur tamoyillar kommunal xo‘jaliklarni rivojlantirish va boshqaruv samaradorligini oshirishda strategik va operativ qarorlar qabul qilishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzayev Q.J., Pardayev M.Q. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2014. – B. 112–118.
2. Muhammadov M.M. Kommunal xo‘jalik iqtisodiyoti. – Toshkent, 2021. – B. 37–42.

3. Бузырев В.В. Экономика жилищной сферыю Санкт-Петербург: Питер, 2019. – С. 85–96.
4. UN-Habitat. World Cities Report 2022. – Nairobi, 2022.
5. Asaul A.N. Экономика недвижимости. – Санкт-Петербург, 2019. – С. 215–228.
6. OECD. The Circular Economy in Citles and Regions. – Paris: OECD Publishing, 2020.